

O'SPIRIN SHAXSIDA O'ZIGA NISBATAN ISHONCH HISSINI PSIXOLOGIK TADBIQ ETISH

Mamadaminova Farida

O'zbekiston Xalqaro

Islom Akademiyasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'spirinlik davriga oid psixologik jarayonlar, o'spirin shaxsida ishonch hissining shakillanishi va ahamiyati, o'spirinlikda o'z-o'zini anglashning rivojlanishi, psixik jarayonlarning o'spirinlik davrida rivojlanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *o'spirin shaxsi, psixik jarayonlar, ishonch hissi, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya, o'z-o'zini anglash, o'ziga baho berish.*

O'spirinlik davri shaxsning rivojlanishi va dunyoqarashi shakillanishining muhim bosqichi hisoblanadi. O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Psixik rivojlanish jarayonida o'z shaxsiy xislatlariga baho berish kuchayadi, o'z-o'zini qaror toptirish va o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg'usi asta-sekin o'sib boradi. O'spirinda o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayib, o'zini anglashga aloqador xususiyatlari vujudga keladi. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib munosabatlarini baholashga harakat qiladilar. O'spirin o'smirga qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Rossiyalik psixologlari I.V.Straxov va A.L.Shnirman tadqiqotlarining ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik, o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi. O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi. Bularda oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunishdir. V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) biror o'quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda); v) shaxsiy qobiliyatini rukach qilish; g) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; yo) moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani; j) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi. Bu motivlarning o'spirin shaxsida rivojlanganligi ularda o'ziga nisbatan ishonch hissi shakillanishiga asosiy omil bo'lib hizmat qiladi. Chunki o'ziga bo'lgan ishonchi bu- shaxsning o'z kuchiga bo'lgan ishonchidir. Shaxs o'z kuchiga qanchalik ishonsa, u o'z ishida shunchalik muvaffaqiyat qozonadi. Taniqli olim Lausterning tabiriga ko'ra shaxsning o'ziga bo'lgan ishonch tug'ilishda bo'lmagan narsa, aksincha, bolalikdan boshlab yosh davrlariga qarab asta-sekin rivojlanadi va bu doimo rivojlanadigan jarayon deb qaraydi. Adler nazariyasiga ko'ra, bola aqliy, jismoniy va ijtimoiy mavqe sifatida u o'zi

tug'ilgan dunyosida kuchsizdir. Insonlar ma'lum maqsadlarga erishadilar va doimo erishishga intiladilar. Bu harakatning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uning o'ziga bo'lgan ishonchiga bog'liq. O'spirinlarda o'z shaxsiy xislatlariga baho berish kuchayadi, ammo o'z kuchiga sub'ektiv baho berishdan qochadi. Shaxsdagi ishonch esa aynan sub'ektiv baholash bilan shakillanadi. Feltzning fikricha shaxsning o'ziga ishonchi, o'zini o'zi baholashi natijasida yuzaga keladigan sub'ektiv hodisadir deb baholagan. Shaxsdagi o'ziga bo'lgan ishonch hissi o'zaro tushunish o'lchovidir va hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun shaxs sub'ekt sifatida uchta muammoni hal qiladi: tashqi dunyoni bilish va o'zgartirish; insonning ichki dunyosini bilish va rivojlantirish; o'z aqliy hayotining va umuman borlig'ining sub'ekti sifatida o'zini bilish va rivojlantirish. Bu jarayonlarni shaxsning shakillanishi va ijtimoiylashuvida aynan ilk o'spirinlik davridan kuzatishimiz mumkin bo'ladi. A. Banduraning fikricha bola ijtimoiylashadi, kattalar va tengdoshlaridan ijtimoiy muhitda o'rganadi, xatti-harakatlarning na'munalari va shakllarini nusxalaydi. Biroq, inson tomonidan to'plangan, o'rganilgan xulq-atvor na'munalar spektrining takrorlanishi shaxsning mustaqil bahosiga bog'liq bo'lib qolaveradi. O'spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z hatti-xarakterlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: birinchidan, bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi; ikkinchidan, o'zining shaxsiy „Men“ ligini aktiv faoliyati asosida anglashi; uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi; to'rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi. Bu anglanganlik darajalari o'spirinda dunyoga va o'ziga bo'lgan ishonch hissi, nisbati yoki darajasiga qarab, turli xil hayotiy vaziyatlar va guruhlarda uning ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlari uchun mumkin bo'lgan strategiyalarning turlarini aniqlaydi. Bu strategiyalar quydagi psixik jarayonlarning asosida shakillanadi: -o'spirinlarda o'ziga bo'lgan ishonch nisbati allaqachon o'rnatilgan xulq-atvor shakllari asosida yotadi, shaxs va uning faoliyatining nisbiy barqarorligini ta'minlaydi; -o'spirinda dunyoga ishonchning ustunligi ularning dunyoga moslashishiga imkon beruvchi xatti-harakatlarning adaptiv shakllari asosida yotadi; -o'spirinda o'ziga bo'lgan ishonch hissining ustunligi ham tavakkalchilik, ham ijodiy transformativ faoliyat bilan bog'liq bo'lgan moslashtirilmagan faoliyat shakllarining asosidir. Shunday qilib, ishonch hissining sub'ektiv hodisasi dinamik xususiyatlarga ega bo'lib doimo mustaqil ravishda shakillanishidadir. T.P. Skripkina "ishonch mustaqil ijtimoiy psixologik hodisadir" deb yozadi va adabiyotlarni tahlil qilish va ishonch hissini mustaqil ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida nazariy va empirik tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keladi: ishonch insonning dunyo bilan o'zaro munosabati sharti va uni birlashtiruvchi usul, vositasidir, inson va dunyoni yagona ontologiyaga aylantiradi. Olim yana iymon va ishonch tushunchalarini ajratib, ishonchni e'tiqod shakllaridan biri deb hisoblaydi va buni e'tiqodning asosiy mezoni sifatida, e'tiqodning sub'ektlari tomonidan, birinchi navbatda, inson tomonidan qabul qilingan ma'lumotni qabul qilish ekanligi bilan bog'laydi. Ishonch hissining asosiy mezoni ishonch hissi sub'yektining axborot manbasiga munosabati deb hisoblaydi. Skripkina, ishonch hissi sub'ekt va tashqi ob'ektni yagona

tizimga bog'laydigan narsadir deb baholaydi. Hayot davomida shaxsning shakllanishi uchta yo'nalishda amalga oshiriladi: 1. Subyektivlik faol sub'ektning dunyo bilan o'zaro ta'siri sifatida, uning sharti ishonch bo'lib, sub'ekt va ijobiy bo'lmagan holatda ob'ektni yagona tizimga bog'laydi. 2. Muloqot uning sharti dunyoga ishonchning bir qismi sifatida boshqasiga ishonishdir. 3. O'z-o'zini anglash shaxsning sub'ektiv hodisasiga o'ziga ishonchning kognitiv komponentining bir qismi sifatida. T. P. Skripkina tomonidan olib borilgan, nazariy tahlil asoslanib, «e'tiqod» va «ishonch» tushunchalarining psixologik mohiyati insonning hayot sub'ekti sifatida mohiyatini anglash, shuni ko'rsatadiki, ularning rivojlanishi ichki psixologik mexanizmlarni tushunish bilan bog'liq erkinlik va mas'uliyat hissi sifatida qabul qilinadi. Mashhur psixolog Eriksonning fikricha, „Ishonch erta bolalikdan boshlanadi. Bu odamlarga ularning tajribalaridan biri sifatida joylashadigan hodisa” sifatida baho beradi. Ishonch axloqiy ijtimoiy tizimning omon qolishi uchun hayotiy ahamiyatga ega qismidir. U inson tabiatini anglash va o'zini o'zi shakllantirish imkonini beradi. Ishonch tuyg'usini yaratish uchun ma'naviy javobgarlik hissiyotdan ko'ra, birdamlik guruhlarini shakllantirish kerak. Bu ishonch va hamjihatlikka asoslangan munosabatlar qabul qilinishi uchun samarali sodiqlik bu motivatsion xulq-atvor asosi bo'lib xizmat qiladi.